

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

P.S.Otaqulov

Geografik nomlarni o'rganishga ijtimoiy-ekologik yondashuv 92

B.M.Dehqonov

Andijon viloyati ekin yerlari monitoringi va uni baholash 97

X.Sh.Djo'rabyeova

An'anaviy suvdan foydalanish madaniyatining shakllanishida geografik omillarning o'rni 101

ILMIY AXBOROT**M.K.Usmonaliyeva**

Chor Rossiyasi hukmronligi davrida turkiston o'lkasida milliy matbuotning vujudga kelishi 105

O.N.Fozilova

Oybekning bolalarga atalgan hikoyalarda qahramon talqini 108

J.J.Mamatisakov

Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarni takomillashtirishning innovatsion - pedagogik modeli 113

N.B.Yuldasheva

Ingliz va o'zbek tillari matnlaridagi paremiyalarni tadqiq etishning muxim jihatlari 121

G.O.Abdujalilova

Ekspozitsiya va uning badiiy-estetik funksiyasi 124

X.Z.Umarova

Epistolary lines: the transformative power of letters in saul bellow's novel «Herzog» 127

D.Hakimova

Yosh voleybolchilarning maxsus jismoniy sifatlarini rivojlantirish 130

G.M.Alamov

Xalq o'yinlari va milliy bellashuvlarning o'quvchi-yoshlarni tarbiyalovchi muhim omil sifatidagi ahamiyati 135

A.K.Xudayberdiyev, M.J.Usmonova

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yagona to'g'ri yo'li-ta'lim sifatini oshirish 139

S.R.Xoliqov

Yangi O'zbekiston yoshlарining ma'nавиати va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy usullari 143

M.A.Aliева

Неомифологизм в творчестве дмитрия сергеевича мережковского 147

A.Y.Ergashev

Yangi O'zbekistonda pedagogning maqomi: ijtimoiy-falsafiy tasnifi va o'ziga xos xususiyatlari 152

Z.X.Oxunova

Yangi O'zbekistonda jinoyat va jazo tushunchalarining o'ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy-antropologik mazmuni 155

X.J.Isomiddinov

Yoshlar tafakkurini rivojlantirishning tarixiy-falsafiy jihatlari 158

R.D.Mustayev

Vatanparvarlik tushunchasining tarixiy-falsafiy mohiyati 161

B.I.Muxtoraliyev

Ilk hikoyalardagi ijodiy o'ziga xoslik 165

D.S.Abduqodirov

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari 171

M.M.Azizov

Methodology of optimizing sports and health programs through scandinavian walking 174

A.U.Xamidjanov

Yuqori malakali kurashchilarni vazn-bo'y ko'rsatkichlarini model xususiyatlari o'rganish asosida yosh erkin kurashchilarni saralash va yo'naltirish metodikasi 181

G.T.Dadamirzayeva

Inson salomatligi va ruhiyatiga musiqaning ta'siri 191

VATANPARVARLIK TUSHUNCHASINING TARIXIY-FALSAFIY MOHIYATI**ИСТОРИКО-ФИЛОСОФСКАЯ СУЩНОСТЬ ПОНЯТИЯ ПАТРИОТИЗМ****HISTORICAL-PHILOSOPHICAL ESSENCE OF THE CONCEPT OF PATRIOTISM****Mustayev Ruslan Damirovich¹**¹Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi**Annotatsiya**

Mazkur maqolada vatanparvarlik tushunchasining mazmun-mohiyati, vatanparvarlik ijtimoiy ong hodisasi sifatida baynalmilallik va milliylik faoliyati sharotidagina faoliyat yuritishi, murakkab dinamik tizim sifatida qaralishi tahlil etilgan. Vatanparvarlikning turli shakllarda ifodalanishi va namoyon bo'lishi ta'kidlangan.

Аннотация

В данной статье анализируется сущность понятия патриотизма, то, что патриотизм как явление общественного сознания функционирует только в условиях интернационализма и национализма и рассматривается как сложная динамическая система. Подчеркивается, что патриотизм выражается и проявляется в различных формах.

Abstract

This article analyzes the essence of the concept of patriotism, the fact that patriotism as a phenomenon of social consciousness functions only under the conditions of internationalism and nationalism, and is considered as a complex dynamic system. It is emphasized that patriotism is expressed and manifested in various forms.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik, baynalmilallik, milliylik, ijtimoiy ong.**Ключевые слова:** патриотизм, интернационализм, национальность, общественное сознание.**Key words:** patriotism, internationalism, nationality, social consciousness.**KIRISH**

Hozirgi murakkab globallashuv davrida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan sharoitda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bog'liq dolzarb vazifalar va ularning hal etilishiga, ushbu masala bugungi O'zbekiston hayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda takomillashtirilishiga ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasi vakillari tomonidan alohida e'tibor qaratilayotgani ham ayni vaqtdagi ijtimoiy zarurat talabidir. Mustaqil davlatning oliy maqsadlarini amalga oshira oladigan mutaxassislarni shakllantirish uchun ularning shaxsiyati ijtimoiy talablarga javob bera oladigan tarzda kamolga yetgan bo'lishi lozim.

Vatan, millat, din tushunchalari inson uchun har narsadan aziz va muqaddasdir. Marhum alloma Alixonto'ra Sog'uniy hazratlarining quyidagi so'zları ona Vatanni sevgan har bir kishining qalbida g'ayrat va shijoat uyg'otadi: «Har bir kimsaga ma'lumdirki, hayot olamida insonning eng sevgan, qadri, qimmatli to'rt narsasi bordur. Bu to'rt narsaga ega bo'limgan kishilar insonlik sharafidan mahrum bo'lurlar. Ular: Ozodlik va erkinlik, mehnat bilan topilgan molga o'zi egalik qilmog'i, tug'ilib o'sgan ona Vatani hamda asrlar bo'yи asrab avaylab kelayotgan muqaddas dini».

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Vatanparvarlik tushunchasining mazmun-mohiyatini yanada teranroq anglashda mavjud ilmiy lug'atlarga murojaat qilamiz.

O'zbek tilining izohli lug'atida: "Vatanparvar – o'z vatanini, ona yurtini, xalqini cheksiz sevuvchi, vatan manfaatlari uchun jonbozlik ko'rsatuvchi. Vatanparvarlik-vatanparvarlarga xos ish, xatti-harakat, xislat" tarzida izohlanadi. Bugungi kunga kelib vatanparvar so'zi fuqorolarning o'z Vatanini sevishini anglatuvchi ramziy so'zga aylanib ulgurdi [1].

Qomusiy lug'atda «vatanparvarlik» so'zi «vatanga muhabbat» sifatida talqin qilinadi. Lug'atda «vatanparvarlik» so'zi «o'z xalqi, Vataniga bo'lgan muhabbat, sodiqlik»ni anglatishi e'tirof etiladi. Pedagogik qomusiy lug'atda vatanparvarlik so'zi mohiyati "o'z vatani, qadrdon tuprog'i, madanly muhitiga bo'lgan muhabbati" tarzida yanada oydinlashtiriladi.[2]

Falsafiy lug'atda vatanparvarlik so'ziga nisbatan quyidagicha izoh berilgan: «vatanparvarlik – ma'naviy va siyosiy tamoyil, vataniga bo'lgan muhabbat mazmuniga ega bo'lgan chuchur ijtimoiy hissiyot, uning o'tmishi va buguni uchun faxr-iftixor, o'z manfaatlarini uning manfaatlariga bo'ysindirishga tayyorlik». [3]

Vatanparvarlik – vatan oldidagi mas’uliyat va burchni anglash tushunchasi. Vatanparvarlik nihoyatda serqirra bo’lib, tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy taraqqiyot jarayonida doimo takomillashib, rivojlanib boradi. Vatan manfaati, qadrqimmatini, taqdirini, istiqbolini qancha ko’p anglashilsa, kishilarda vatanparvarlik tuyg’usi shuncha baland bo’ladi. Bu jarayon cheksizdir. Tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy taraqqiyotning turli bosqichlari vatanparvarlikning yangi-yangi qirralarini kashf etib boradi. Har bir shaxsdagi vatanparvarlik tuyg’usi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog’liq. Haqiqiy vatanparvarlik millat, vatan manfaati bilan yashash, uning istiqboli, manfaati yo’lida mehnat qilish, kurashishdir.[4]

Vatanparvarlik – bu ijtimoiy-fuqarolikning yuksak shakli, o’z Vatanini ko’klarga ko’tarish. Vatanparvarlik mohiyatiga nisbatan zamonaviy qarashlarini bir necha guruhga ajratgan holda kengroq ko’rib chiqish zarurati mavjud. Birinchi guruh olimlarimiz vatanparvarlikka ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-axloqiy hodisa sifatida qaraydilar. Ularning fikricha, vatanparvarlik yuksak insonparvarlik yo’nalishi, qonunlarga bo’lgan itoat, Vatanga bo’lgan alohida muhabbat, mamlakat ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o’zgarishlarida faol ishtirot etadigan, davlat himoya qudratini mustahkamlash yo’nalishiga ega bo’lgan o’zbek milliy xarakterining yorqin xususiyati sifatida xarakterlanadi.

Ikkinchchi guruh olimlar vatanparvarlikni ijtimoiy ong hodisasi sifatida ko’radilar. Ushbu qarash nuqtai nazaridan vatanparvarlik hodisasi O’zbekistonda istiqomat qiladigan xalqlarning o’zaro hamkorlikdagi tarixiy hayotiy tajribalari asosida shakllangan madaniy aloqalarini ta’minlaydigan Vatanga bo’lgan muhabbatlari, undan faxr hissini tuyishlarini baynalmilal qadriyatlar bilan uyg’unlashtiradigan milliy psixologik xususiyatlari bilan shartlanadi.

V.V.Piontkovskiyning fikricha, «vatanparvarlik ijtimoiy ong hodisasi sifatida» baynalmilallik va milliylik kabi ikki tarkibiy qismlar faoliyati sharoitidagina me’yorida faoliyat yurita oladigan murakkab dinamik tizim sifatida qaralishi mumkin. Vatanparvarlikning namoyon bo’lishi turli shakllarda ifodalanishi mumkin:

- axloqiy tamoyillarga asoslanadigan metodologik;
- axloqiy hissiyotlarni tarbiyalash orqali emotsional-psixologik;
- integratsiyalashgan axloqiy sifat tarzida tarbiyalananadigan xulqiy;
- ijtimoiy ong orqali shakllantiriladigan falsafiy[4].

Uchinchi guruh tadqiqotchilar vatanparvarlikni o’zbek millati vakillariga xos majmuaviy shaxs sifati va ijtimoiy pedagogik hodisa sifatida talqin qiladilar. Vatanparvarlik o’zbek xalqiga asrlar mobaynida xos bo’lgan, uning mentaliteti, tarixi, madaniyati, Vatani, xalqiga bo’lgan muhabbat, dushmanlariga nafrati, uning ozodligi va mustaqilligi yo’lida qurbon bo’lishga tayyorligining ajralmas asosini tashkil qiladi.

To’rtinchchi guruh olimlar vatanparvarlik ijtimoiy muhitda inson faoliyati va xulqi yo’nalishini belgilab beradigan fikrlar sohasini qamrab oladi degan qarashni ilgari suradilar. Beshinchchi guruh vakillari vatanprvarlik – bu Vatanini tashqi agressorlarning qurolli bosqinidan himoya qilish, uning ravnaqi yo’lida yuksak samarali mehnat qilish, o’z Vataniga nisbatan qadriyatli munosabatda bo’lish, inson ma’naviy rivojlanishi va o’zligini anglashinig yuksak darajasiga mos bo’lgan shaxsning integral sifatlari[5].

R.A.Mavlyanova yozishicha, o’zbek xalqi vatanparvarligi mohiyati zamonaviy jamiyatni tartibga solishda o’z aksini topadi «... jamiyatning munosib turmush tarzi, uning mavjudligining muhim tizimi yoki organizmi hisoblanadi. Aynan shu nuqtai nazaridan vatanparvarlik jamiyatning hayotiy qodirligi, avtonomligi, o’ziga xosligini saqlashini ifodalaydi»[6].

Vatanparvarlik jumlai jahondagi barcha xalqlarning donishmand va solih farzandlariga xos tuyg’udir. Quyida ularning ayrimlariga to’xtalsak:

Sitseron. Bizga ota-onalar, bolalar, yakin xesh-aqrabolar qimmatlidir, lekin muhabbat bobidagi barcha tasavvurlarimiz biringina “Vatan” degan so’zda mujassamlashgan. Vatanga nafi tekkudek bo’lsa, qaysi vijdonli odam uning uchun jon bermoqqa ikkilanan ekan?

G.Gegel. Ma’rifatli xalqlarning haqiqiy jasorati Vatan yo’lida qurbon bo’lishga hozir ekanliklarida aks etadi.

J.Delil (fransuz shoiri). Eng maqbul fazilat — Vatanga va odamzodga ko’rsatilgan xizmatdir.

J.Bayron (ingliz shoiri). Kimki o’z yurtini sevmasa, u hech nimani seva olmaydi.

J.Russo (fransuz mugaffakiri). Sahovatning eng buyuk jasurliklari Vatanga bo’lgan muhabbat tufayli vujudga keladi.

ILMIY AXBOROT

P.Kornel (fransuz dramaturgi). Kimki Vatanini xor qilsa, u oilasidan ham, bor-budidan ham ayrladi.

V.Gyugo (fransuz adibi). O'z Vataniga dog' tushirish — uni sotish degan so'z.

M.Solmon Sovajiy (fors shoiri). Vatanga nafi yo'q yashalgan har kun, Inson hayotini qilur bemazmun. Har kuminiz Vatanga naf yetkazsin, umrimiz sermazmun bo'lsin, insha Alloh! Hazrat Alisher Navoiy yozmishlar: "Elga qo'shilgon esh (sherik) topti". Darhaqiqat Vatandan tashqarida haqiqiy baxt yo'q [7].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Fikrimizcha, vatanparvarlikning asosiy xususiyatlari doir yondashuvlar quydagicha namoyon bo'ladi.

Diniy vatanparvarlik – bu Vatanga muhabbat va ehtirom, uning farovondigi to'g'risida g'amxo'rlik va fidoiylikka tayyorlikda namoyon bo'ladigan eng yuqori ma'naviy va axloqiy tuyg'u.

Sotsiologik vatanparvarlik – ko'p jahbali ijtimoiy-madaniy qadriyat, uning zamirida yurti manfaatlari uchun faol harakatlarga undovchi Vatanga bo'lgan tabiiy bog'liqlik va muhabbat yotadi.

Vatanparvarlik – axloqiy va siyosiy tamoyil, Vatan manfaatlarni himoya qilishda konkret yaratuvchanlik ishlarida namoyon bo'ladigan Vatani o'tmishi va buguni uchun faxr-iftixor mazmuniga ega bo'lgan chuqur ijtimoiy hissiyot.

Madaniy vatanparvarlik – bu yuksak ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan his-tuyg'ular, e'tiqodlar, qarashlar, intilishlar, Vatan farovonligi uchun harakat qilishga tayyorlik va qobiliyat shakllanadigan maskan. Vatanparvarlik madaniyat tarixi va nazariyasi kontekstida jamoatchilik, birlik, qarindoshlar, do'stlar, vatandoshlar bilan birdamlik, ularning taqdirliga daxldorlik tuyg'usini o'z ichiga oladi

Tarixiy vatanparvarlik – bu o'zbek xalqining ko'p asrlik tamaddunining tarixi, ijtimoiy shart-sharoitlari mahsuli.

Siyosiy vatanparvarlik – qadriyat xarakteriga ega bo'lgan siyosiy g'oya, umummilliyl manfaatlarni himoyasi asosi, umummilliyl o'zligini anglashning siyosiy ahamiyatga molik bazisi.

Pedagogik vatarparvarlik – o'z Vatani o'tmishi, buguni va ertasi bilan bog'liq qadriyatlar, an'analari va steriotiplariga bo'lgan hissiyotlarida ifodalananadigan xalqning milliy o'zligini anglashining asosi.

Hozirgi paytda yoshlarimizda vatanparvarlik tuyg'usini kamol toptirish, ularni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Inson o'z yurtini qanday bo'lsa shundayligicha sevishi, uning rivoji uchun bor imkoniyatlarini ishga solishi lozim.

Vatanparvarlik kishilarda asosan uch bosqichda namoyon bo'ladi:

- 1) bilish – Vatan tushunchasiga xos qadriyatlarni egallash;
- 2) e'tiqod – mazkur qadriyatlar to'g'risida oлган bilimlarini e'tiqodga aylantirish;
- 3) harakat – bu e'tiqodni amaliy ishlar orqali namoyon etish [8].

Dinimiz ta'limotlarida ona Vatan himoyasi, millat farovonligi va din ravnaqi yo'lida jon bergen kishilarga shahidlik maqomi berilishi aytilgan.

Vatanparvarlik — kishilarning ona yurtiga, o'z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiyl bo'lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatlardan biri.

Tarixiy jihatdan Vatanparvarlik kishilarning o'z vatanlari taqdirlari bilan bog'liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o'zlarini yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo'lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg'ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o'tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarni himoya qilishda namoyon bo'ladi.[9]

Vatanparvarlik – Vatanining ozodligi va obodligi, uning sarhadlari daxlsizligi, mustaqilligining himoyasi yo'lida fidoyilik ko'rsatib yashash, ona xalqining or-nomusi, shon-sharafi, baxtu saodati uchun kuch-g'ayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini baxsh etishdek dunyodagi eng muqaddas va oljanob faoliyatni anglatadigan tushuncha. Vatanparvarlik nihoyatda serqirra tushuncha bo'lib, tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy taraqqiyot jarayonida doimo takomillashib, yangicha ma'no-mazmun bilan boyib, rivojlanib boradi.

Vatanparvarlik deganda yana quydagilarni anglash joiz:

- o'z xalqini, tarixini yaxshi bilish va u bilan faxrlanish;
- qadimiy obidalar, mislsiz imoratlar, ajdodlar yaratgan moddiy va ma'naviy meroslarni ko'z qorachig'iday asrash va avlodlarga taqdim etish;

- xalqimizning, ajdodlarimizning go'zal va ma'noli urf-odatlar, rasm- rusum va udumlarini qadrlay bilish, ularni davom ettirish;
 - ajoyib vatandoshlar - ajdodlar nomi bilan, ularning ulug' ishlari, ijodlari bilan faxrlanish, ularning ishlarini davom ettirish, ularga munosib voris bo'lish;
 - shunday ajoyib xalqqa, yurtga, uning boy tili va madaniyatiga mansubligi bilan faxrlanish;
 - Turonzaminni ximoya qilib, tomirida oxirgi qoni qolguncha dushmanga qarshi kurashgan bahodirlarni, ayovsiz janglarda xalok bo'lgan qahramonlar nomini yod etish;
 - bu aziz va go'zal vatanimizda yuksak e'tiqod bilan yashash, unga hamisha sadoqatli bo'lishdir.
 - Vatanparvarlik hammamizning o'z ishimizga mas'uliyat bilan qarash, vatanning boyliklarini ko'z qorachig'iday asrash, boyliklariga boylik qo'shishga o'z ulushimizni qo'shish, ilm-fan cho'qqilari sari intilish va boshqalardir.
 - ona yurtimizda tinchlik, barqarorlik va osoyishtalikni saqlashga intilish vatanparvarlikning belgisidir;
 - vatanparvarlik – xalqaro munosabatlarda vatan, millat manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yishdir.
- O'zbekiston xalqi, ayniqsa, yoshlari uchun o'z yurti, tarixi, o'tmishta yashagan ota-bobolari faoliyati bilan haqli ravishda g'ururlanishi o'zlarida vatani taqdiri uchun daxldorlik tuyg'usi rivojlanishiga muhim hissa bo'lib qo'shiladi. Vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda esa Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahreddin Muhammad Bobur va boshqalarning siymosi beba ho tarixiy namuna vazifasini o'taydi.

XULOSA

Ijtimoiy-falsafiy vatanparvarlik jamiyat va davlat hayotining barcha sohalariga xos bo'lgan eng muhim, doimiy qadriyatlardan biri bo'lib, u shaxsnинг ma'naviy rivojlanishining eng yuqori darajasini tavsiflaydi va o'zini Vatan farovonligi yo'lida teran anglashida namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. – T.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. – B. 444-445.
2. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. – T.: "O'zdavnashr" Davlat ilmiy nashriyoti. – B. 348.
3. Falsafiy lug'at. – T.: "Fan" nashriyoti, 1998. – B. 543.
4. Falsafa. Qomusiy lug'at. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti", Toshkent, 2004. – B. 496.
5. Пионтковский В.В. Патриотическое воспитание учащейся молодежи в условиях регионального образования: дисс. ... док. Рождение процесса военно-патриотического воспитания флотской молодежи: монография. – Новороссийск: ГМУ им. адм. Ф. Ф. Ушакова, 2015. – 124 с.
6. Abdullaev K.R. O'quvchi-yoshlarning vatanparvarlik tarbiyasi muhim ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida. Obrazovanie i innovatsionnye issledovaniya. 2021. №1. – B. 99-104.
7. Mavlyanova R.A. Umumiy pedagogika. – Toshkent: «Yangi avlod», 2011. – B. 64.
8. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo'raev N. Vatan tuyg'usi. – T.: O'zbekiston, 1996. – B. 147-148.
9. <https://oyina.uz/kiril/teahause/1448>
10. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-v/vatanparvarlik-uz/>
11. Xolmirzaev N.N. Vatanparvarlik – shaxs ma'naviyatining mezoni. // "Harbiy vatanparvarlik – yuksak ishonch va sadoqat timsoli" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiysi materillari to'plami. – Toshkent, 2020. – B. 316-318.
12. D Maxamadalievna, MX Madaminovna. Gnoseological Substantiation of Cognitive Development Children. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology 2 (4), 7-11
13. Maxamadalievna,Y.D., & Madaminovna, M. H. . (2022). GNOSEOLOGICAL ASPECTS OF RESEARCH OF ISSUES OF TEACHING SCHOOLCHILDREN TO STATEMENT AND SOLVING PROBLEMS. Modern Journal of Social Sciences and Humanities, 4, 35–39. Retrieved from <https://mjssh.academicjournal.io/index.php/mjssh/article/view/65>
14. YD Maxamadalievna. USE OF PRESIDENTIAL NAMES IN UZBEK CHILDREN'S TEXTS. Gospodarka i Innowacje. 22, 68-70.